

• Bo'lajak informatika o'qituvchisini kasbga tayyorlashda sohaga oid jadval ma'lumotlarini guruhlash, tartiblash, saralash va filtrlash, umumlashgan elektron jadvallar bilan ishlash texnologiyasi vositalari va ularni muhandislik masalalarini yechishda qo'llay olish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Mavlonova, N.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – T., 2009.
2. P.A.Mavlonova, B.Normurodova, N.Rahmonqulova. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". – T.: Fan, 2007.
3. A.T.Kenjabayev, M.M.Ikramov, A.Sh.Allanazarov. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, 2020.
4. M.T.Azimjanova, M.T.Muradova, M.S.Pazilov. Informatika va axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, 2020.
5. S. Qosimov. "Axborot texnologiyalari". Texnika oliy o'quv yurtlari bakalavriat bosqichi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. – Toshkent, 2016.
6. Erien H Glendinning, John McEwan, Oxford for inglisch. Information texnology. Printed China. 2016
7. P.Ф.Сузи, Язык программирования Python, М.:Национальный открытый университет "ИНТУИТ", 2016 (Основы информационных технологий)
8. Erien H Glendinning, John McEwan, Oxford for inglisch. Information texnology. Printed China. 2016

Islomjon TURDIYEV,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O'zbek tili va adabiyoti universiteti*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ISH YURITISH TERMINLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI QIYOSI

Annotatsiya: so'zlarning semantik xususiyatlari so'zlarni tavsiflash va farqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ma'noning turli tomonlarini anglatadi. Bu xususiyatlar so'zning ta'rif, uning sintaktik xususiyatlari, boshqa so'zlar bilan bog'lanishi, dunyo va inson tajribasi bilan bog'liqligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. So'zlarning semantik xususiyatlarini aniqlash va ifodalashning bir necha yondashuvlari mavjud va turli lingvistik nazariyalar va hisoblash modellari ushbu mavzu bo'yicha o'z nuqtayi nazarlarini taklif qiladi.

Kalit so'zlar: *leksema, lug'at, ish yuritish terminlari, semantik tahlil, til, terminologiya.*

Annotation: semantic features of words refer to different aspects of meaning that can be used to describe and differentiate words. These features can include information about a word's definition, its syntactic properties, how it relates to other words, and how it relates to the world and human experience. There are several approaches to identifying and representing the semantic properties of words, and various linguistic theories and computational models offer perspectives on the subject.

Key words: *lexeme, dictionary, office work terms, semantic analysis, language, terminology.*

Аннотация: семантические особенности слов относятся к различным аспектам значения, которые можно использовать для описания и дифференциации слов. Эти функции могут включать информацию об определении слова, его синтаксических свойствах, о том, как оно соотносится с другими словами и как оно связано с миром и человеческим опытом. Существует несколько подходов к выявлению и представлению семантических свойств слов, а различные лингвистические теории и вычислительные модели предлагают взгляды на этот предмет.

Ключевые слова: *лексема, словарь, деловые термины, семантический анализ, язык, терминология.*

Kirish. Semantik xususiyatlarni ifodalashning muhim asoslaridan biri Charlz J. Fillmor tomonidan ishlab chiqilgan semantik xususiyatlar nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra, so'zlarni jonlilik, kishilik, faollik, tetiklik kabi ma'no belgilariga ko'ra tavsiflash mumkin. Bu xususiyatlar so'z ma'nosining asosiy jihatlarini qamrab olish uchun ishlatiladi va ko'pincha semantikaning hisoblash modellarida qo'llaniladi. So'zlarning ma'nosini ifodalashning yana bir ta'sirchan yondashuvi semantik tarmoqlar yoki vektor tasvirlaridan foydalanishdir. Bunday yondashuvda so'zlar yuqori

o'lchovli semantik makonda nuqta sifatida ifodalanadi va so'zlarning semantik xususiyatlari bu nuqtalarning bir-biriga nisbatan o'rni bilan tutiladi. Ushbu tasvirlarni yaratish va manipulyatsiya qilish uchun so'zlarni joylashtirish va taqsimlash semantikasi kabi usullar qo'llaniladi. Ushbu rasmiy yondashuvlardan tashqari, so'zlarning semantik xususiyatlariga oid ko'plab psixologik va kognitiv tadqiqotlar mavjud. Ushbu tadqiqot so'z ma'nolarining aqliy ifodasi, so'zni tushinishda kontekstning roli va leksik kirish va so'z ma'nosini izlashda ishtirok etadigan kognitiv

jarayonlarga oid tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

Asosiy qism. Ingliz va O'zbek tillarida ish yuritish sohasiga oid terminlar o'z holicha kichik bir tizimdir va, albatta, bu ikki tildagi ish yuritish terminlarning semantik tuzilishida umumiy va farqlovchi jihatlarni aniqlash, terminlarning ifoda planida mavjud imkoniyatlarni tadqiq qilish esa bu ikki tildagi o'zaro hujjat almashinuvidagi ma'lum bir g'alizliklarga yechim berishga yordam berishi shubhasiz. Ingliz va o'zbek tillarida ish yuritish terminlarining tadqiqida ma'lum bir izohli lug'atlar asos sifatida olinadi. Xususan, o'zbek tilidagi so'zlarda sememalarni belgilash yoki ko'p sememali leksema sememalarni farqlash uchun bugungi kungacha tayanch manba vazifasini, asosan, "O'zbek tilining izohli lug'ati" o'tab kelmoqda. Lekin Ingliz tilida ayni bir lug'at turi asos qilib olinmagan, shunga qaramasdan eng ko'p qo'llaniladigan sifatida "Oxford English Dictionary", "Cambridge learner's dictionary" Merriem-Webster English Dictionary" va "Longman English dictionary" larni keltirishimiz mumkin. Ushbu dissertatsiyada Ingliz tilidagi ish yuritish terminlarining, asosan, "Cambridge learner's dictionary" lug'atidagi ma'nolari "O'zbek tili izohli lug'ati" bilan taqqoslanadi. Leksik sathda alohida tizim sifatida qaralmasada ushbu terminlar huquqshunoslikka oid pometalari ostida beriladi va ularning ma'noviy xususiyatlari hamda lisoniy ahamiyati masalasi xususida bahs olib borilganda tizim leksemalarining semantik tarkibi, tabiati ham O'TILdagi tavsif, talqin va misollar asosiy manba sifatida olinadi. Holbuki, ingliz tilida ushbu terminlar alohida pometa ostida emas, u beradigan ma'no qaysi kontekstda qo'llanilishiga qarab qavs ichida beriladi. Masalan:

Administration noun (MANAGEMENT): the people in an organization who manage its business and operations; The decision to cancel the trip was made by the school administration.

O'TILda huq. (yoki yur.) pometalari ostida beriladigan ish yuritish terminlariga oid leksemalarning semantik tavsifini tadqiq qilish va bu terminlar bo'yicha umumiy xulosalarga kelish orqali ushbu terminlarning umumfilologik izohli va tarjima lug'atlaridagi berilishiga doir mezonlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikning sistem-struktur yo'nalishi asoschisi bo'lmish Ferdinand de Sossyur ta'kidlaganidek butun bir sistema o'z ichida bir qancha tarkibiy qismlarga ajralish xususiyatiga egadir: "Til yaxlit bir butunlikni tashkil qiluvchi elementlarning sistemasi. Uni tashkil etuvchi har bir elementning ma'nosi bir paytning o'zida shu sistemani tashkil qilayotgan boshqa elementlarning mavjudligiga asoslanadi" [1]. Har bir tildagi leksik tarkibini tashkil etuvchi barcha kichik sistemalar o'zidan kattaroq bo'lgan boshqa sistemaning tarkibidagi element sifatida bo'ladi. Har qanday butunlikda esa quyidagilar aks etadi: 1) ko'plab elementlardan iborat butunlik; 2) yaxlitlikni tashkil etuvchi elementlar; 3)

elementlar o'rtasidagi barqaror munosabatlar [2].

Yuqorida qayd etilganidek, ish yuritish terminlari huquqshunoslik terminlari tarkibida bo'ladi. Bu holat Ingliz va o'zbek tillarida ham bir xil uchraydi. Tilshunos olimi M.Ergasheva semantik maydon haqida fikr yuritib shunday deydi: "Semantik maydon alohida til sistemasi sifatida murakkab lisoniy strukturaga ega. Maydonning struktur o'zagini barcha paradigmatic guruhlar yig'indisi tashkil etadi. Paradigmatic munosabatlar turli xil xarakterda, u yoki bu mazmuniy belgilari bilan yaqin bo'lgan leksik birliklarning har xil sinflari yordamida namoyon etilishi mumkin. Paradigmatic munosabatlar bir chiziqli emasligi bilan farqlanadi" [3]. Bu munosabat terminologik sistemalarga xos hisoblanib huquqshunoslik terminlari tarkibida bo'lgan ish yuritish terminlari misolida ham ko'rish mumkin bo'ladi. Ma'lumki, leksik birliklarning mazmuniy va leksik-semantik xususiyatlari semasiologiyaning eng muhim vazifalaridandir. Mazmuniy tuzilish esa leksik ma'no, ma'no ottenkasi hamda hissiy-ekspressiv ottenkani o'z ichiga oladi [4]. Ingliz va O'zbek tillari izohli va boshqa lug'atlarining yaratilish jarayonida ham ushbu vazifalar amalga oshirilgan, hamda qat'iy tuzilgan reja, mavjud alohida qo'llanma va yo'riqnomalar asos qilib olingan. Bularga misol qilib S.F.Akobirovning "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning chegaralari va manbalari haqida"gi maqolasi, akademik A.Hojiyev tomonidan tuzilgan "O'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'atini tuzuvchilar uchun yo'riqnoma" larni keltirish mumkin. Mazkur qo'llanmalar ikkala izohli lug'atni yaratish jarayonida miqdorni belgilash va termin tanlashda amaliy vosita bo'lib xizmat qilgan. Lug'atni ishlab chiqish jarayoni lug'atning maqsadga muvofiq bo'lishi uchun undan foydalanayotgan odam soha bo'yicha bilimiga ega bo'lmisligi mumkinligini ham inobatga olish muhim ahamiyatga egadir. Lug'at yaratish jarayonining markazida so'zlarni to'plash, lug'at yozuvlarini tasniflash va semantik tadqiqotlarni osonlashtirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan semantik sohalar katalogi mavjud. Bu ro'yxat amhar, xitoy, ingliz, fransuz, hind, indoneziya, nepal, rus, portugal, ispan va suahili kabi qator tillarda mavjud[5]. Ingliz tilidagi terminlar o'zbek tilidagi o'xshashlarga qaraganda ko'proq aniq xarakterga ega; ko'p holatlarda tor ma'noli so'z va so'z birikmlari bo'ladi, masalan: agreement - a decision or arrangement, often formal and written, between two or more groups or people; Contract - a legal document that states and explains a formal agreement between two different people or groups, or the agreement itself; Deal - an agreement or arrangement, esp. in business:

Ushbu terminlarning barchasi umumiy "kelishuv" ma'nosiga ega bo'lsa-da, ular semantik jihatdan tadqiq qilinganda ular o'rtasidagi tafovutlarni aniq bilish mumkin. So'zlarni tarjima qilishda o'zgarishlar murakkab bo'lishi mumkin. Ham alohida so'zlarning, ham umumiy jummalarning transformatsiyasi mavjud.

Leksik birliklar umumiy ichki shaklga va o'xshash semantik komponentlarga ega bo'lmasa-da, ular turli tillarda ifodalangan semantik tarkibni yetarlicha yetkazadi.

Xulosa. Umuman olganda, semantik xususiyatlarni o'rganish rasmiy lingvistik nazariyalarni, hisoblash modellarini va kognitiv psixologiyani o'z ichiga olgan keng va ko'p tarmoqli sohadir. Bir qator lingvistik, hisoblash va psixologik nuqtayi nazarlarni hisobga

olgan holda, tadqiqotchilar so'z ma'nosining boy va murakkab tabiatini yanada to'liqroq tushinishlari mumkin. Ingliz tilidagi ish yuritish terminologiyasining semantik tahlili huquqiy atamalarning ma'nolarini chuqur o'rganishni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p qirrali vazifadir. Yuridik til o'zining aniqligi, o'ziga xosligi va tarixiy ildizlari bilan ajralib turadi, bu esa uning o'ziga xos semantik tuzilishiga yordam beradi.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. Соссюр Ф. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – С. 147.
2. E.Sabirova "O'zbek tilining izohli lug'ati"da huquqiy terminlarning berilishi. diss. 2022.
3. Ergasheva M. Olamning lisoniy manzarasi va semantik maydonlarga bo'linishi. «Молодой учёный». №3.1 (107.1) Filologiya . Fevral, 2016. 62-bet.
4. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М., 1959. – С 57.
5. <https://www.sil.org/dictionaries-lexicography/dictionary-development-process>

Odina USMONOVA,
Andijon davlat universiteti

TAOM NOMLARINI KONSEPT SIFATIDA O'RGANISH

Annotatsiya: maqolada lingvistik va madaniy tahlil jarayonida taom nomlarini ko'rib chiqish va gastronomiya, turmush tarzi va qadriyatlarning xususiyatlarini modellashtirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *kognitologiya, konsept, lingvokulturologiya, mentalitet, antropologiya, etnolingvistika, konstruksiya, estetika, paradigma, leksikologiya.*

Konseptning mohiyatini aniqlash masalasi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda. Konseptual tizim shaxsning dunyoqarashini shakllantiradi, uning voqelikni tushunishini aks ettiradi. Odam nafaqat moddiy obyektlar sohasida, balki ularning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlariga moslashtirilgan konseptlar dunyosida ham mavjuddir. Konseptlarning muammoli sohasini o'rganish va dunyoning lingvistik manzarasini tushunish kognitiv tilshunoslikning ilmiy tadqiqot sohasidir. Bu mental dunyoni ifodalovchi va odamlarning atrof-muhit haqidagi qarashlarini qamrab oladigan, tushunchalar deb nomlanuvchi minimal birliklarga joylashtirilgan konseptual sohani o'rganishni o'z ichiga oladi. "Konsept", "tushuncha" va "ma'no" kabi terminlar ko'pincha bir-birining o'rnida ishlatiladi. Konsept hissiy va ifodali ma'nolar bilan to'yintirilib, natijada, u turli g'oya, tasvir va bilim bilan bog'liq bo'ladi. Shaxsiy ong tomonidan qayta ishlanadigan konseptdan farqli o'laroq, konsept murakkab ifoda shakllarini: hissiyot, imtiyoz, nafrat va ba'zan hatto nizolarni talab qiladi. Konsept obyektning tan olingan fundamental xususiyatlarining to'plami. U dunyo manzarasining mental komponenti bo'lib xizmat qiladi, lingvistik va madaniy bilimlarni qamrab oladi. Frazologik, leksik va boshqa lingvistik vositalar

konseptni turli yo'llar bilan yetkazadi. Agar konseptni lingvistik bilishning belgisi sifatida ko'rib chiqsak, u, haqiqatan ham, til bilan chambarchas bog'liq bo'lgan aqliy prinsipni aks ettirishi mumkin.

Shuning uchun konsept, ma'no va konseptosferani farqlash masalasi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb va muhim vazifasi bo'lib qolmoqda. Konsept, tushuncha va ma'noning asosi, mazmuni va ko'lamini taqqoslab, ularning farqlanishini aniqlash mumkin. Konsept milliy xususiyatlardan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan ma'noni anglatadi, u mantiqiy fikrlash orqali yetkaziladi. Konseptning namoyon bo'lish doirasi har tomonlama xilma-xil va kengdir. Lingvokulturologik yo'nalish tarafdorlari konsept tushunchadan ancha keng ma'noga ega, deb hisoblashadi. Ularning fikricha, konsept mazmuni nafaqat belgilangan kategorik xususiyatlarni, balki barcha tegishli madaniy ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Bu nuqtayi nazar N.D.Arutyunova, V.V.Kolesov, Z.D.Popova, I.A.Sternin, Yu.S.Stepanov, V.N.Teliya, L.O.Cherneyko kabi olimlar tadqiqotlarida ham ilgari surilgan. Jumladan, N.D.Arutyunova konseptni milliy an'ana, folklor, din, mafkura, hayotiy tajriba, badiiy obraz, his-tuyg'u va qadriyatlar tizimi kabi omillarning o'zaro ta'siri natijasi paydo bo'lgan amaliy falsafa tushunchasi sifatida izohlaydi. Konsept "inson va